YASHIL IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*





# "MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR SAQLASHDA "YASHIL IQTISODIYOT", "YASHIL MOLIYA", "YASHIL BUXGALTERIYA" VA ILG'OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI ILMIY-AMALIY INTEGRATSIYALASHTIRISH DOLZARBLIGI"

*Maqola va tezislar to'plami*

2025-YIL
30-MAY

Academic Resource Index ResearchBib
OpenAIRE
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU
OPEN ACCESS
ROAD
BASE
Crossref
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 277 sahifa.*
*E’lon qilishga 2025-yil 11-martda ruxsat etildi.*

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G‘afforovna,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko‘nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li,** TDIU katta o‘qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Omborxonada wms tiziminidan foydalanishni afzalliklari ........................................ 16
**G'ofurov Shoxjaxon Abdumajit o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich**
Интеграция проектного офиса в корпоративную структуру строительной компании, работающей по epc-контрактам ........................................ 21
**Махмудов Сардор Козим угли**
Investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili ........................................ 24
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**
Tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi itimoiy-iqtisodiy qarashlar tahlili ........................................ 27
**Abduvohidov Behzod XXX**
Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari ........................................ 30
**Jo'rayev Eldor Berdibekovich**
O'zbekistonda davlat budjetini kupaytirishda soliqlarni ahamiyati ........................................ 34
**Karimova Gulbahor Normurodovna**
Dunyo oziq-ovqat bozorining dinamik rivojlanishidagi o'zgarishlar, qiyinchiliklar va ularning yechimlari ........................................ 36
**Tolipova Baxtigul Farxodovna**
Исследование тепловых и диффузионных процессов при азотировании зубчатых колес в вакуумной среде ........................................ 39
**Жасурбек Юлдашбоевич Холмирзаев**
Axborot tizimlaridan foydalangan holda tashkilotni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishni takomillashtirish ........................................ 49
**Xujamova Shahrizoda Otabek Qizi**
Sanoat sektorida dekarbonizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish strategiyalari ........................................ 52
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**
Sanoat rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Surxondaryo viloyati misolida) ........................................ 56
**Xalmuratov Zakirjan Mekkamovich**
"Yashil iqtisodiyot" – barqaror taraqqiyot omili ........................................ 58
**Lapasova Kamola Farhod qizi**
Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ........................................ 60
**Raxmonov Baxtiyor Azzamovich**
"Makroiqtisodiy masalalarni yechishda matematik modellarning ahamiyati" ........................................ 63
**Abdiraimov Abbos Xolmurod O'g'li**
Moda marketingida iste'molchilarning ichki ehtiyojlari va xulq-atvoriga asoslangan yondashuvlar ........................................ 67
**Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna**
O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tahlili ........................................ 72
**Raximov Ilyos Muydinovich**
Tijorat banklarida omonatlarni jalb qilishda mijoz sodiqligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar ........................................ 75
**Raximov Shoxrux Furqatovich**
Raqamli bank xizmatlarida sun'iy intellektdan foydalanishning istiqbollari va xavfsizlik masalalari ........................................ 78
**Erdonayev Aliqul Xalimovich**
Ta'minot zanjirini optimallashtirish yo'llari ........................................ 82
**Matkarimova Umida Alisher qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich**
The role of global value chains in international trade competition ........................................ 85
**Rakhmonova Dildora Ergash Qizi**
Электронная коммерция в узбекистане: государственные стратегии, технологический прогресс и барьеры развития ........................................ 88
**Махаммадалиева Муслимахон Шерали Кизи**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Modernization of the social protection system through digital technologies and innovative approaches ... 90
**Abduzoirov Mukhiddin Umidjon ugli, Qudratov Inomjon Nemat ugli**

Tabiiy va sun'iy tolalar asosida qayta ishlangan mahsulotlarning texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligi ... 93
**Raximov Furqat Jalalovich**

Maishiy kimyo tovarlari B2B bozori uchun barqaror va yashil taqsimot modellarini ishlab chiqish ... 97
**Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi**

Chakana savdo va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish ... 102
**Po'latova Sug'diyona Iskandar qizi, Abdullayev Firdavs Sanjar o'g'li, Ravshanova Muxtarama**

Zamonaviy shahar massivlarida xizmat ko'rsatish va boshqarishda "Aqlli shahar" konsepsiyasi ... 105
**Ismailov Najmiddin Ilxamovich**

Germaniyaning ta'minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanishni afzalliklari ... 108
**Nuriddinov G'ulomiddin Ziyovuddin o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich**

Ta'minot zanjirida CPFR texnologiyasi foydalanishni afzalliklari ... 111
**Komilov Muhammmad Yusuf Sardorbek o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich**

Ta'minot zanjirlarini qo'llashda jahon tajribasi ... 115
**Karimov Amirxon Anvarovich, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich**

Sug'urtada investisiya faoliyatini tashkil etishni huquqiy asoslari ... 118
**Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich**

Yurtimizda amaldagi budjetlararo munosabatlar tartibi, hisobi hamda uning afzalliklari ... 122
**Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich**

Aholini ijtimoiy himoya qilish institutlari shakllanishining xorij tajribalari ... 127
**Bobonov N.H.**

Способ организации продуктивной работы преподавателя и его влияние на результативность ... 131
**Гулнора Казимова**

Literature is a reflection of the soul and culture of humanity ... 136
**Sayidova Sayyora Yorikulovna**

Turizm infratuzilmasida transport xizmatlarini integratsiyalash: muammo va yechimlar ... 140
**Vakilov Ruslan Tillabayevich**

Ekoturizm va madaniy meros obyektlariga tashrifni tartibga soluvchi huquqiy normalar ... 142
**Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li**

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition ... 145
**Umida Kakhramonova Gayratovna**

Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar ... 149
**Ro'ziyev Sobirjon Samatovich**

Xizmat ko'rsatish sohasida mulkni qayta baholash va unga yetkazilgan moddiy zararni aniqlash ... 153
**Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich**

Shahar aglomeratsiyasining sifatini ekologik va geologik mezonlar asosida kompleks baholash ... 155
**Irgashev Shavkatbek Turdiyevich**

Sanoatda korxonalarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash ... 160
**Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy tengsizliklarni kamaytirish usullari ... 165
**Ibragimov Baxrom Baxodirovich**

Tog' yon bag'rida joylashgan kon uymlarini ochiq usulda qazib olish xususiyatlari ... 174
**I.T. Mislibayev, M.Sh. Ochilova**

Milliy iqtisodiyotda turizmning o'rni va rivojlanish imkoniyatlari ... 176
**Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna**

China insurance market experience ... 178
**Jumaboyev Akmal Sheraliyevich**

Tijorat banklarida moliyaviy resurslarning shakllanish manbalari....................181
**Tangirkulov Bekzod Boxadirovich**
Bank tizimida buxgalteriya hisobotlarida axborot texnologiyalarining roli va rivoji....................185
**Sodiqov Sanjar Saydullo o'g'li**
Samarali loyiha risklarini boshqarish: nazariya va amaliyot....................189
**Nosirova Gulira'no Abdulaziz qizi**
XXI-asrda Xitoyning iqtisodiy taraqqiyoti: sohaviy islohotlar, yutuqlar va muammolar tahlili....................192
**D.E.Qarshiyev**
Boshqaruv hisobining zamonaviy konsepsiyalarini joriy etish xo'jalik yurituvchi subyektlarda natijadorlikka erishishning muhim omilidir....................195
**Xoshimov Baxrom Baxadirovich**
Eksportga chiqariladigan mahsulotlar uchun zamonaviy qadoqlashning ahamiyati va tendensiyalari....................201
**Xidirov Shohrux Bobur o'g'li**
Усовершенствование подходов к управлению проблемными кредитами в коммерческих банках узбекистана....................205
**Улмасой Хусан кизи Ахмедова**
Sug'urtada investitsiya faoliyatini obyekti va predmeti....................208
**D.E.Qarshiev**
O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning tadbirkorlik sohasida istiqbollari....................211
**Sattarov Xayrulla Fayzullayevich**
Sug'urtada anderrayting xizmatini xorij tajribasidan foydalanish....................213
**D.E. Qarshiev**
Важность проекта «умный город» в узбекистане....................216
**Акбаржон Иминов**
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project....................218
**Akbarjon Iminov**
Moliyaviy faoliyat natijalari hisobini takomillashtirishda tahlilning o'rni....................220
**Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Abduxoliqov Isomiddin Ikrom o'g'li, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li**
Temir yo'l va intermodal transport tizimining rivojlanishi: investitsiyalar, xarajatlar va samaradorlik tahlili....................226
**Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi**
O'zbekistonda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ahamiyati....................230
**S.J. Yangiboev**
Korporativ boshqaruv va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik: davlat ishtirokidagi korxonalar misolida....................234
**Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li**
"Sanoat korxonalarida zamonaviy loyiha menejerining asosiy kompetensiyalar modelini ishlab chiqish"....................238
**Axmedov Daniyar Sabirovich, Valiyev Shamsiddin Eshpulatovich**
Turizmdagi shartnoma munosabatlari: turoperatorlar, turagentlar, turistik xizmatlar iste'molchilari....................241
**Ergasheva Iroda Ibrohim qizi**
"Разработка модели ключевых компетенций современного менеджера проекта в промышленных предприятиях"....................243
**Ахмедов Данияр Сабирович, Научный руководитель**
Xorijiy tajriba asosida o'zbekistonda oliy ta'lim akademik boshqaruvini takomillashtirish....................249
**Muxamedova Moxigul Xusanovna**
The role of international institutions in accelerating green finance....................253
**Qudratov Inomjon Nemat o'g'li**
Barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish....................257
**Xudayberdieva Dilnoza Egamberdiyevna**
Indicators and criteria of women's sustainable employment in the context of economic growth....................262
**Kholiyorova Shokhista Kahramon kizi**
Qishloq xo'jaligi sohasida "Salam" maxsus savdo shartnomalaridan foydalanish istiqbollari....................267
**Xoliyorov Xomid**

Davlat xaridlarida kichik biznesning ortib borishi va uning umumiy tizimdagi o‘rni ..................................269
**Majidov Nizom Baxramovich**
Davlat qarzlarini qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish va tashqi xatarlardan himoyalanish yo‘nalishlari ..........................................................................................................273
**Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich**

# DAVLAT QARZLARINI QAYTARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA TASHQI XATARLARDAN HIMOYALANISH YO'NALISHLARI

**Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat qarzlarini boshqarish tizimini isloh qilish, ularni samarali qaytarish mexanizmlarini ishlab chiqish, tashqi moliyaviy xatarlardan himoyalanish strategiyalarini aniqlash, qarz barqarorligini ta'minlash, fiskal intizomni mustahkamlash va iqtisodiy xavfsizlikni oshirish orqali davlat moliyaviy siyosatining barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan o'rganib chiqilgan. Shuningdek, global moliyaviy bozorlarning o'zgaruvchan sharoitida qarz olish va uni qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat qarzini monitoring qilish, tashqi qarzlarning samaradorligini baholash va strategik risklarni kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish masalalari ham tahlil etilmoqda.

Kalit so'zlar: davlat qarzi, tashqi qarz, ichki qarz, fiskal siyosat, korporativ tashqi qarz, YaIM (Yalpi ichki mahsulot), moliyaviy siyosat.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of reforming the public debt management system, developing effective debt repayment mechanisms, identifying strategies to protect against external financial risks, ensuring debt sustainability, strengthening fiscal discipline, and enhancing economic security to support the stability of public financial policy. The article also analyzes the improvement of debt acquisition and repayment mechanisms in the context of volatile global financial markets, monitoring public debt, evaluating the effectiveness of external borrowing, and developing scientifically grounded proposals to reduce strategic risks.

Key words: public debt, external debt, domestic debt, fiscal policy, corporate external debt, GDP (Gross Domestic Product), financial policy.

Аннотация: В данной статье теоретически и практически рассматриваются вопросы реформирования системы управления государственным долгом, разработки эффективных механизмов его возврата, определения стратегий защиты от внешних финансовых рисков, обеспечения устойчивости долга, укрепления фискальной дисциплины и повышения экономической безопасности с целью стабилизации государственной финансовой политики. Также проанализированы механизмы заимствования и погашения долга в условиях изменчивости глобальных финансовых рынков, система мониторинга государственного долга, оценка эффективности внешних заимствований и выработка научно обоснованных предложений по снижению стратегических рисков.

Ключевые слова: государственный долг, внешний долг, внутренний долг, фискальная политика, корпоративный внешний долг, ВВП (Валовой внутренний продукт), финансовая политика.

O'zbekiston iqtisodiyoti yaqin yillarda jadal kreditlash va tashqi moliyaviy integratsiyaga o'tmoqda. Shu sharoitda davlat qarzlari strukturasini optimallashtirish hamda ularni indikatorlar orqali boshqarish zarurati yuzaga kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakatning umumiy tashqi qarzi 64,1 mlrd AQSH dollarini, ya'ni YaIMga nisbatan 55,7 %ni tashkil qilgan. Ushbu holat davlat moliyaviy xavfsizligi nuqtayi nazaridan muhim sinaluvchanlik mezoniga aylangan.

Mazkur maqola davlat qarzlarini o'z vaqtida va samarali qaytarish mexanizmlarini tahlil etish, tashqi xatarlarga qarshi strategik choralarni ishlab chiqish, shuningdek qarz bilan bog'liq fiskal intizomni mustahkamlashga doir uslub va algoritmlarni ilmiy asosda ko'rib chiqishga bag'ishlanadi.

Imtiyozli va bozor shartlarida jalb etilgan qarzlarni boshqarish, budjetdan tashqari manbalarni safarbar etish, sug'urta tizimini kuchaytirish hamda davlat kafolatli qarz garovlarining atribusiyasini aniq belgilash talab etiladi. 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, jami davlat qarzi 42,43 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, shundan tashqi

qarz 35,55 mlrd (83,8 %), ichki qarz esa 6,87 mlrd (16,2 %)ni tashkil qilgan. Qarzning YaIMga nisbati esa 2025-yil boshida 33,5 %ni tashkil etgan boʻlib, bu oʻtgan yilga nisbatan 1,8 foiz bandga oʻsishni anglatadi.

Bundan tashqari, 2024-yilda jalb etilgan qarz fondlarining 45 %i budjetni toʻgʻridan-toʻgʻri qoʻllab-quvvatlashga, 17 %i energetika sohasiga, 8 %i transport infratuzilmasiga, 9 %i esa qishloq xoʻjaligi va suv xoʻjaligiga yoʻnaltirilgani qayd etilgan. Bu omillar moliyaviy-fiskal siyosatning qarzga tayanadigan strategiyasini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizning jahon moliya tizimiga jadal integratsiyalashuvi sharoitida davlat qarzining xavfsiz darajada boʻlishi — makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlashda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro mezonlarga koʻra, hozirda Oʻzbekiston Respublikasining davlat qarzi “moʻtadil” darajada boʻlsa-da, suveren kredit reytinglari barqarorligini saqlash va davlat qarzining xavfsiz darajada boʻlishini kafolatli taʼminlash mexanizmlarini yaratish dolzarb masalaga aylangan.

Bunda, davlat qarzining yillik limitlarini belgilash, qarz hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni tanlashda ustuvor yoʻnalishlarni aniqlash, ularning amalga oshirilishini tizimli ravishda monitoring qilish va loyihalar natijalarini baholashning shaffof hamda samarali mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasida davlat qarzini samarali boshqarishda quyidagi ustuvor maqsadlarga qatʼiy rioya qilinishi belgilab qoʻyilgan:

davlat qarziga oʻz vaqtida va toʻliq xizmat koʻrsatilishini kafolatli taʼminlash;

davlat qarzini makroiqtisodiy barqarorlik uchun xavfsiz darajada saqlab turish, diversifikatsiyalash va xizmat koʻrsatish xarajatlarining ortib ketish xavfini kamaytirish;

davlat qarzi hisobidan moliyalashtiriladigan loyiha va texnik-iqtisodiy asos ishlab chiqishni talab etmaydigan dasturlarni ularning ijtimoiy-iqtisodiy va strategik ahamiyatiga, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga asoslanib tanlash;

davlat qarzi hisobidan moliyalashtiriladigan loyiha va dasturlarning natijadorligini, oʻz-oʻzini oqlashini hamda amalga oshirilishi boʻyicha maʼlumotlarning shaffofligini taʼminlash orqali qarzlardan maqsadli va samarali foydalanish;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 % va undan ortiq boʻlgan yuridik shaxslar va banklarni bosqichma-bosqich bozor shartlarida moliyalashtirishga oʻtkazish (1-rasm).




1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasining tashqi qarzining dinamik koʻrsatkichlari

Ushbu rasmdan koʻrinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida Oʻzbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi izchil oʻsib borgan. 2020-yilda bu koʻrsatkich 33,8 mlrd dollarni, 2021-yilda 39,4 mlrd dollarni, 2022-yilda 43,5 mlrd dollarni, 2023-yilda 53,3 mlrd dollarni, 2024-yilda esa 64,1 mlrd dollarni tashkil qilgan. Bu oʻsish

sur'ati besh yil ichida 90 % dan ortiq darajadagi ko'tarilishni anglatadi. Bunday keskin o'sish davlat moliyaviy siyosatining tashqi manbalarga bo'lgan qaramligini kuchaytirayotganini bildiradi. Tashqi qarz o'sishining asosiy sabablari sifatida pandemiya davrida iqtisodiy rag'batlantirish, infratuzilma loyihalari uchun mablag' jalb etish va tashqi moliyaviy yordamga bo'lgan ehtiyoj ko'rsatib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi qarzining dinamik ko'rsatkichlari ikki tarkibiy qismini — davlat tashqi qarzi va korporativ tashqi qarz hajmini ham o'z ichiga oladi. 2020-yilda davlat tashqi qarzi 21,4 mlrd dollar, korporativ qarz esa 12,5 mlrd dollar bo'lgan. Bu nisbat 2024-yilda mos ravishda 33,9 mlrd dollar va 30,2 mlrd dollarga yetgan. Ushbu ma'lumotlar korporativ tashqi qarzning ayniqsa 2023–2024-yillarda keskin o'sganini ko'rsatadi. Bu esa xususiy sektor korxonalarining xalqaro moliya bozorlariga faol chiqayotganini bildiradi. Shu bilan birga, davlatning umumiy tashqi qarzdagi ulushi 2020-yildagi 63,3 % dan 2024-yilda 52,9 % gacha kamaygan. Bu davlat va xususiy sektor o'rtasidagi tashqi qarz yukining muvozanatlashayotganini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi qarzining dinamik ko'rsatkichlari aks etgan rasmda muhim indikator sifatida umumiy tashqi qarzning YaIMga nisbati ham tasvirlangan. 2020-yilda bu ko'rsatkich 50,9 %, 2021-yilda 51,0 %, 2022-yilda 48,3 %, 2023-yilda 51,9 %, 2024-yilda esa 55,7 % ni tashkil qilgan. YaIMga nisbatan bunday yuqori darajadagi tashqi qarz ko'rsatkichi xalqaro miqyosda mo''tadil xavf zonasi sifatida baholanadi. Agar bu daraja 60 % dan oshsa, qarz barqarorligi xavf ostida qoladi. Shu bois 2024-yildagi 55,7 % ko'rsatkich jiddiy e'tibor va strategik boshqaruvni talab qiladi. Shu o'rinda Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Qarzlar maqsadli sarflanmoqda, lekin uni ortiqcha yig'ish emas, samarali qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish muhim".

Bu holat O'zbekiston iqtisodiy barqarorligi uchun tashqi qarzlar bo'yicha tizimli yondashuvni zarur etishini ko'rsatadi. Davlat tomonidan jalb etilayotgan mablag'lar energetika, transport, qishloq xo'jaligi kabi strategik sohalarga yo'naltirilayotgan bo'lsa-da, ularning rentabelligi va o'z vaqtida qaytarilishi alohida ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, tashqi qarz miqdori emas, balki uning samaradorligi, foyda keltirishi va qaytarilish mexanizmi asosiy o'rinda turadi. Davlat va xususiy sektor o'rtasida muvozanatli qarz siyosatini yuritish, shaffof monitoring tizimlarini joriy etish, tashqi risklarga qarshi sug'urta choralarini ko'rish hozirgi bosqichda zarur choralar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi qarz hajmi yildan-yilga ortib borayotgani davlat moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy xavfsizligi uchun dolzarb masalaga aylanmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yakunida mamlakatning umumiy tashqi qarzi 64,1 milliard AQSH dollarini tashkil etib, bu yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan 55,7 % darajaga yetgan. Ushbu ko'rsatkich 2020-yildagi 50,9 % dan boshlab izchil o'sib kelmoqda. Ayniqsa, korporativ tashqi qarzlar hajmining jadal oshishi bilan bog'liq fiskal xavflar yuzaga chiqmoqda. Jumladan, 2024-yilda umumiy tashqi qarzning 30,2 milliard dollari korporativ sektorga, 33,9 milliard dollari esa davlatga tegishli bo'lgani qayd etilgan. Korporativ qarzlarning umumiy qarzdagi ulushi 2020-yildagi 37 % dan 2024-yilda 47 % ga ko'tarilgan.

Ushbu holatning muammoli jihati shundaki, davlat kafolatisiz olinayotgan korporativ tashqi qarzlar iqtisodiyotdagi to'lovga qobiliyatli talabning pastligi, valyuta kursining beqarorligi yoki global foiz stavkalarining o'sishi natijasida qaytarilishida muammolar yuzaga kelishi mumkin. Agar bunday qarzlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmasa, bu davlat kafolatiga tushadigan to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy bosimga aylanishi mumkin. Shu bois bu qarzlarning boshqaruvi va monitoringi bevosita fiskal siyosat doirasida nazorat ostiga olinishi zarur.

Boshqa tomondan, tijorat asosida jalb etilayotgan tashqi qarzlarning ulushi ham ortib bormoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda davlat tashqi qarzining 12 %i xususiy investorlar va moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etilgan bo'lib, bu kreditlar yuqori foiz stavkasi, qisqa muddatli to'lov majburiyatlari va valyuta risklari bilan tavsiflanadi. Ushbu holat davlat budjetiga qo'shimcha bosim keltirib chiqaradi, ayniqsa ichki inflyatsiya va valyuta kursining o'zgaruvchanligi sharoitida. 2023-yilda davlat ichki qarzlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 18–19 % atrofida bo'lgan. Bu esa qarz xizmatining xarajatlarini sezilarli darajada oshirmoqda.

Muammoning yechimi sifatida birinchi navbatda tashqi va ichki qarzlarning tuzilmasini optimallashtirish, ularni aniq strategik ustuvorliklarga muvofiq sarflash va real daromad keltiradigan loyihalarga yo'naltirish zarur. Shuningdek, davlat va korporativ tashqi qarzlar ustidan shaffof monitoring tizimini joriy qilish, ularni mustaqil ekspertizadan o'tkazish va hedj mexanizmlarini (valyuta va foiz risklaridan sug'urta qilish) keng tatbiq etish lozim. Xususan, xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan hedj instrumentlari — forward, swap va opsionlar — orqali qarzlarning qiymatini inflyatsiya va valyuta o'zgarishlaridan himoyalash imkoniyati mavjud.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu borada quyidagicha fikr bildirgan: "Tashqi qarz mablag'lari faqat aniq maqsadli loyihalarga jalb etilishi, ularning har bir dollari xalq farovonligi uchun ishlashi lozim." Bu fikrdan kelib chiqib, qarzlarni faqat ijtimoiy yoki iqtisodiy samaradorlikka ega loyihalar uchun jalb etish, ularning qaytarilish manbalarini dastlabki bosqichda aniq belgilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston tashqi qarz siyosatini strategik nazorat ostida yuritishi, xususan korporativ sektorning qarz olish faoliyatini tartibga soluvchi aniq me'yoriy-huquqiy asoslar yaratishi, qarz yuki bo'yicha xavf indikatorlarini ishlab chiqishi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydigan mexanizmlarni

shakllantirishi zarur. Aks holda, yuqori qarzdorlik va to‘lov qobiliyatining zaiflashuvi iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solishi mumkin. Shu bois, davlat moliya boshqaruvi tizimi uzluksiz takomillashtirib borilishi zarur. Bu esa uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat qarzlarini qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar:

Qarz xizmatini baholash indikatorlarini joriy qilish. Har bir yangi qarz oldidan investitsiya samaradorligi, pul oqimlari, valyuta risklari va qaytarilish manbalari bo‘yicha ko‘rsatkichlar asosida dastlabki moliyaviy baholov (ex-ante debt sustainability analysis) tizimini yaratish zarur.

Soliq va budjet daromadlarining qarzga xizmat ko‘rsatish salohiyatini oshirish. Budjet intizomini kuchaytirish, fiskal ehtiyot choralarini tatbiq etish va qarz yuki bilan bog‘liq xarajatlarni oldindan rejalashtirish orqali qarzlarni qaytarish imkoniyatlari mustahkamlanadi.

Qarzlarni qaytarish uchun mo‘ljallangan maxsus moliyaviy zaxira fondini tashkil etish. Bunday fond davlatning moliyaviy barqarorligini oshirish, foiz to‘lovlari va asosiy qarzlarni kechiktirmasdan to‘lashda yordam beradi.

Tashqi xatarlardan himoyalanish bo‘yicha takliflar:

Valyuta risklarini boshqarish bo‘yicha hedj mexanizmlarini joriy etish. Davlat va yirik korporativ qarzlar uchun valyuta kursi va foiz stavkalaridagi o‘zgarishlarga qarshi moliyaviy sug‘urta (forward, swap, option) instrumentlaridan foydalanish zarur.

Tashqi qarzning tuzilmasini diversifikatsiya qilish. Yagona donorlar va qisqa muddatli tijorat qarzlariga qaramlikni kamaytirish, ko‘proq multilateral va imtiyozli (concessional) qarz manbalaridan foydalanish orqali risklarni kamaytirish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy shoklarga bardoshli iqtisodiy modelni shakllantirish. Eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirish, valyuta tushumlarini barqarorlashtirish va iqtisodiy rezervlarni kuchaytirish orqali davlat global moliyaviy beqarorliklardan himoyalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmon (https://lex.uz/uz/docs/5841063).
2. Pedro L. Is a very high public debt a problem? // Levy Economics Institute of Bard College, Annandale-on-Hudson, NY. No. 843, 2015.
3. Pienkowski A. Debt Limits and the Structure of Public Debt // Journal of Globalization and Development, vol. 8, no. 2, 2018, pp. 20170018. https://doi.org/10.1515/jgd-2017-0018.
4. Shukurov, A. O., & Umarov, M. (2022). Davlat krediti va davlat qarzini samarali boshqarish. Science and Education, 3(11), 1107-1120.
5. Gafurova, S. M., G’ulomova, M. S., Isakova, M. R., Ishmanov, N. A., & Kenjayeva, S. A. (2022). O’zbekiston Respublikasi davlat qarzini boshqarishni takomillashtirish yo’llari. Science and Education, 3(11), 1121-1135.
6. 4. A.A. Shernayev (2021). Sog ‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda mahalliy budjetlarning rolini oshirish masalalari. Интернаука, (20-7), 58-60. 5. A.A.
7. Шернаев (2020). Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности в акционерных обществах. Интернаука, 43-45.
8. Z.J. Jumanazarova & A.A. Shernayev (2020). Budjetdan tashqari jamg‘armalar moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari. Студенческий вестник, (1-6), 87-89.
9. A.A. Shernayev (2020). On the issue of the efficiency of taxation of joint stock companies. Экономика и бизнес: теория и практика, (9-2), 149-152.
10. А.А. Шернаев (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах-как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. Экономика и общество, (4), 20-28. 9. Н.О. Люшнина Внешний долг: монография / Н.О. Люшнина, О.А. Николайчук. – М.: ИНФРАМ, 2015.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025-yil, may.**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz